


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 131 768,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 18 085,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 24,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 113 682,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 15 440,4 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 %ga kamaygan) tashkil etdi.


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Jizzax, Andijon, Buxoro viloyatlarida qayd etildi.

*-дастлабки маълумотлар

Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,2 %ga o'sdi va 18 085,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 113 682,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,0 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,3 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 yil
yanvar-dekabr




2018 yil
yanvar-dekabr



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Sirdaryo (93,6%), Qashqadaryo (92,6%), Surxondaryo (92,4%), Navoiy (91,4%) va Jizzax (91,2%) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (24,5%), Xorazm (19,9%) va Buxoro (12,8%) viloyatlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	18085,7	124,2	113682,5	103,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	495,6	133,2	3942,9	103,2
<i>viloyatlar:</i>				

Andijon	1163,6	143,8	9245,9	103,6
Buxoro	1067,3	143,6	7239,3	102,9
Jizzax	381,3	163,9	3971,4	104,0
Qashqadaryo	654,9	107,2	8196,5	103,4
Navoiy	467,9	146,7	4991,1	103,9
Namangan	738,9	110,3	7087,7	104,1
Samarqand	1059,0	140,6	10088,0	102,4
Surxondaryo	677,6	104,5	8218,4	104,4
Sirdaryo	145,5	84,2	2130,0	105,1
Toshkent	1669,0	107,7	12214,7	104,2
Farg`ona	1297,1	137,2	9915,3	102,2
Xorazm	1038,9	167,3	4170,9	100,8
Toshkent sh.	7229,1	117,8	22270,4	101,9


Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasida
mulchlik shakllarining ulushi, (%)



Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	shu jumladan:	
		Nodavlat mulki (mlrd.so`m)	Davlat mulki (mlrd.so`m)
O`zbekiston Respublikasi	131768,2	131546,4	221,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	4438,5	4436,8	1,7
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	10409,5	10404,6	4,9
Buxoro	8306,6	8305,1	1,5
Jizzax	4352,7	4348,7	4,0
Qashqadaryo	8851,4	8848,8	2,6
Navoiy	5459,0	5451,8	7,2
Namangan	7826,6	7821,4	5,2
Samarqand	11147,0	11143,3	3,7
Surxondaryo	8896,0	8894,0	2,0
Sirdaryo	2275,5	2275,5	0,0
Toshkent	13883,7	13879,2	4,5
Farg`ona	11212,4	11212,1	0,3
Xorazm	5209,8	5208,4	1,4
Toshkent sh.	29499,5	29316,7	182,8

2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 3 998,4 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Toshkent shahri (11 857,7 ming.so`m), Navoiy (5 650,0 ming. so`m) va Toshkent (4 820,9 ming.so`m) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qoraqalpog`iston Respublikasi (2 391,4 ming.so`m), Sirdaryo (2 765,5 ming.so`m) va Qashqadaryo (2 782,7 ming so`m) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	3998,4	103,7
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2391,4	104,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3425,1	105,1
Buxoro	4407,1	105,2
Jizzax	3251,7	105,4
Qashqadaryo	2782,7	101,7
Navoiy	5650,0	104,8
Namangan	2871,0	102,7
Samarqand	2965,1	103,7
Surxondaryo	3499,9	102,2
Sirdaryo	2765,5	101,8
Toshkent	4820,9	103,4
Farg`ona	3070,5	103,6
Xorazm	2862,2	107,7
Toshkent sh.	11857,7	103,5


Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 %ni tashkil etib, 3588,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, (%)

2017 yil
yanvar-dekabr




2018 yil
yanvar- dekabr



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, (%)



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	shu jumladan:	
		Nodavlat mulki (mlrd.so`m)	Davlat mulki (mlrd.so`m)
O`zbekiston Respublikasi	3588,1	3398,8	189,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	129,8	129,5	0,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	115,6	115,5	0,04
Buxoro	247,0	246,9	0,1
Jizzax	86,9	85,1	1,8
Qashqadaryo	195,9	195,1	0,8
Navoiy	135,4	130,4	5,0
Namangan	89,4	85,9	3,5

Samarqand	212,2	211,4	0,8
Surxondaryo	189,8	188,9	0,9
Sirdaryo	47,2	47,2	0,0
Toshkent	378,1	376,7	1,4
Farg'ona	209,2	208,8	0,4
Xorazm	82,8	81,6	1,2
Toshkent sh.	1468,8	1295,7	173,1


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr*)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 53155,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 6,1 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 34741,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda, Toshkent shahrida (78,8%), Farg'ona (71,0%) va Samarqand (69,7%) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



*-дастлабки маълумотлар


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 34,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Navoiy (67,6%), Toshkent (63,1%) va Jizzax (53,5%) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
O`zbekiston Respublikasi	53155,9	106,1	18414,1	110,5	34741,8	103,9
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1117,8	103,8	458,3	95,7	659,5	110,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1796,5	117,7	834,2	128,2	962,3	109,9
Buxoro	2104,3	108,6	799,2	103,2	1305,1	112,2
Jizzax	1141,4	127,2	610,1	210,7	531,3	87,4
Qashqadaryo	2346,8	101,5	1104,3	88,4	1242,5	116,9
Navoiy	1586,9	187,3	1072,6	320,1	514,3	100,5
Namangan	1965,1	103,8	799,3	112,8	1165,8	98,4
Samarqand	3854,0	100,2	1166,0	99,6	2688,0	100,4
Surxondaryo	2077,1	110,9	803,1	121,0	1274,0	105,3
Sirdaryo	1144,7	103,4	509,1	98,6	635,6	107,5
Toshkent	5999,5	111,1	3784,5	111,8	2215,0	109,9
Farg`ona	3053,2	102,9	886,5	103,7	2166,7	102,6
Xorazm	1226,0	113,6	572,0	133,3	654,0	100,6
Toshkent sh.	23742,6	101,4	5014,9	97,0	18727,7	102,6

Mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)

2017 yil
yanvar-dekabr




2018 yil
yanvar-dekabr



■ Davlat mulki
■ Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi
bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, (%)




■ Nodavlat mulki
■ Davlat mulki

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	shu jumladan:	
		Nodavlat mulki (mlrd.so`m)	Davlat mulki (mlrd.so`m)
O`zbekiston Respublikasi	53155,9	52997,5	158,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1117,8	1117,8	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1796,5	1796,2	0,3
Buxoro	2104,3	2104,3	
Jizzax	1141,4	1141,4	-
Qashqadaryo	2346,8	2346,8	
Navoiy	1586,9	1586,2	0,7
Namangan	1965,1	1965,1	
Samarqand	3854,0	3854,0	-
Surxondaryo	2077,1	2077,0	0,1
Sirdaryo	1144,7	1144,7	-
Toshkent	5999,5	5998,5	1
Farg`ona	3053,2	3053,2	-
Xorazm	1226,0	1226,0	
Toshkent sh.	23742,6	23586,3	156,3

Joriy yilning yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 53155,9 mlrd.so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 52997,5 mlrd.so`mni va davlat tasarrufiga ega koronalar tomonidan 158,4 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha talil qiladigan bo'lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. (44,7 %), Toshkent viloyati 11,3 %, Samarqand viloyati 7,3 %, Farg`ona viloyati 5,7 %, Qashqadaryo viloyati 4,4 %.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Samarqand (100,2 %), Toshkent sh. (101,4 %), Qashqadaryo (101,5 %) va Farg'ona (102,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**